

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JURAQULOV ELYOR NURMAMAT O‘G‘LI

AYLANA IGNADONLI TO‘QUV MASHINALARIDA IKKI QATLAMLI
TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI OLISH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Juraqulov Elyor Nurmat o‘g‘li

Aylana ignadonli to‘quv mashinalarida ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini
olish texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Журакулов Элёр Нурмамат угли

Совершенствование технологии получения двухслойных трикотажных
переплетений на кругловязальных машинах 21

Jurakulov Elyor Nurmat ugli

Improving the producing technology of double layer knitting structures on
circular knitting machines..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JURAQULOV ELYOR NURMAMAT O‘G‘LI

AYLANA IGNADONLI TO‘QUV MASHINALARIDA IKKI QATLAMLI
TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI OLISH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4705 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz/ru) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Kamoliddin Zununovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xakimov Sherqul Sherg'oziyevich
texnika fanlari doktori, professor

Abdurahmanov Abdurashid
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 9-aprel kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: pochta@ttyesi.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (227-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 24-mart kuni tarqatildi
(2025 yil 24-martdagi 227-raqamli reystr bayonnomasi).



X.X. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh. Hakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda hozirgi kunda trikotaj sanoatida tayyor mahsulot ishlab chiqarish (qiymati bo'yicha) o'sib bormoqda. Bu yakuniy mahsulot tannarxi homashyo va yarim tayyor mahsulot tannarxidan sezilarli darajada yuqoriligi, shuning uchun tayyor mahsulotlar xalqaro bozorda keng joy egallashi bilan izohlanadi. Jahon bozorlari trikotaj sanoatida raqobatning kuchayishi, ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash turdagi to'qimalar ishlab chiqarish hisobiga xarajatlarning kamaytirilishi ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda. Jahonda to'qimachilik bozori hajmi 2023 yilda 1,840 trillion dollarni tashkil etdi.¹ Bozorning o'sishiga, trikotaj mahsulotlarning xilma-xilligi, shakl saqlash xususiyatining yuqoriligi, tannarxining pastligi va biologik parchalanadigan kiyimlardan foydalanish kabi omillar turtki bo'lmoqda.

Sanoatda ustki trikotaj mahsulotlariga mo'ljallangan ikki qatlamli trikotaj to'qimalar tuzilishlarini olish uchun resurstejamkor texnologiyalarning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yangi trikotaj to'qimalarini yaratish usullarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, ustki trikotaj mahsulotlarida ishlatiladigan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining texnologik jarayonlari, ko'rsatkichlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga ko'paytirish"² bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, yuqori sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yangi tuzilishli trikotaj to'qimalarini olish, ularni assortimentini kengaytirish orqali dunyo bozori talablariga javob beradigan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini yaratish va ularning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora -tadbirlari to'g'risida" Qarori, 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora -tadbirlari to'g'risida" Qarori, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni, "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son Farmoni, "To'qimachilik va tikuv-

¹<https://www.precedenceresearch.com/textile-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil 1 maydagi PF-71-son Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi dasturi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish usullari, trikotaj to'qima tuzilishi, fizik-mexanik xususiyatlari va texnologik ko'rsatkichlarini tadqiq etish borasidagi masalalar Betts Max William, Robirson Frank, Bartkowiak Grazyna, Szucht Eduart, Rempp Wolfgang, Failenschmid Otto, Siegezt Diethardt, Heide Marianne, Bohn Monika, Wild Steffen va h.k. kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan.

Trikotaj sanoatida yangi to'qimalarni yaratish, hamda trikotaj to'qimasining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha A.S. Dalidovich, L.I. Kudryavin, E.P. Pospelov, I.G. Sitovich, B.S. Oks, V.M. Lazarenko, O.I. Marisova, A.A. Guseva tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotaj to'qimalarini olish, trikotaj mahsulotlarining assortimentini kengaytirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, hamda trikotaj to'qimasining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha professorlar M.M. Muqimov, N.R. Xanxadjayeva, F.U. Nigmatova, S.SH. Tashpulatov, Q.M. Xolikov, dotsentlar B. Mirusmanov, K.Z. Yunusov, G.X. Gulyayeva, M.M. Musayeva, N.M. Musayevlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ammo, bu tadqiqotlarda aylana ignadonli mashinalarda ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarish, mashinaning texnologik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va sifatli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy tadqiqot ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №:36/2024 "Aylana ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish orqali yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarish" mavzusidagi xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Aylana ignadonli to'quv mashinalarida taxtlash ketma-ketligi asosida ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aylana ignadonli to'quv mashinalari uchun rejalashtirilgan trikotaj to'qimasini to'qishga tayyorlash va taxtlash usulini ishlab chiqish;

qo'shimcha biriktiruvchi ipni to'qima tarkibiga lastik, interlok to'qimalari asosida kiritib ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usulini takomillashtirish;

aylana ignadonli mashinalarda ip taranglik kuchining o'zgarishi bilan halqa ipi uzunligi orasidagi bog'lanishlarni va mashina texnologik ko'rsatkichlarining muqobil qiymatlarini aniqlash;

turli xil tuzilishga ega bo'lgan trikotaj namunalari deformatsiya ko'rsatkichlarini bir siklli xarakteristikalar asosida baholab, shakl saqlash xususiyati koefitsiyentini aniqlash;

tomonlarni asos ipi yordamida pressli biriktirish natijasida sifat ko'rsatkichlari yuqori ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida aylana ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinalari, ikki qatlamli trikotaj to'qimalari olingan.

Tadqiqotning predmeti yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-tadqiqot ishida qo'yilgan vazifalarni bajarishda nazariy va eksperimental usullardan foydalanildi. Ilmiy ish jarayonida trikotaj texnologiyasi, to'qimachilik materialshunosligi, nazariy mexanika va amaliy matematika usullari hamda kompyuter dasturiy ta'minotidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qo'shimcha biriktiruvchi ipni to'qima tarkibiga lastik, interlok to'qimalari asosida kiritib ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usuli takomillashtirilgan;

aylana ignadonli mashinalarda ip taranglik kuchining o'zgarishi bilan halqa ipi uzunligi orasida bog'lanishlar Eyler tenglamasidan foydalangan holda ishlab chiqilgan va mashina texnologik ko'rsatkichlarining muqobil qiymatlari aniqlangan;

turli xil tuzilishga ega bo'lgan trikotaj namunalari deformatsiya ko'rsatkichlarini bir siklli xarakteristikalar asosida baholab, shakl saqlash xususiyati koefitsiyenti aniqlangan;

tomonlarni asos ipi yordamida pressli biriktirish natijasida fizik-mexanik xususiyatlari yuqori ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yangi tuzilishli trikotaj to'qimalarini aylana ignadonli mashinalarda olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

trikotaj to'qimalari tuzilishi o'zgarishini texnologik ko'rsatkichlar va fizik-mexanik xususiyatlarga ta'siri tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy holatlar, prinsiplar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini bir-biriga mos kelishi, aprobatiya va joriy qilinishidagi ijobiy natijalar, shuningdek natijalarni solishtirish, baholash kriteriyalariga ko'ra, ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning ko'rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma'lumotlariga qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati trikotaj to'qimalarini aylana ignadonli mashinalarga taxtash usuli ishlab chiqilganligi, ikki qatlamli trikotaj to'qimalari tuzilishi o'zgarishini texnologik ko'rsatkichlar va fizik-mexanik xususiyatlarga ta'siri tadqiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aylana ignadonli mashinalarning texnologik imkoniyatlari kengaytirilganligi, yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish usuli takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aylana ignadonli trikotaj to‘quv mashinalarida yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

aylana ignadonli mashinalar uchun trikotajning taxtlash usuli hamda yangi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi “BEKMAN BEST” MCHJ va “SURXON TEKS” MCHJ korxonalarida (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024 yil 2-dekabrda № 03/25-3241 sonli ma’lumotnomasi) joriy qilingan. Ilmiy natijalar ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini aylana ignadonli mashinalarda ishlab chiqarishda ish unumdorlikni 13 % ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 11 ta ilmiy - texnik konferensiyalarda, shu jumladan 6 ta xalqaro, 5 ta Respublika ilmiy konferensiyalarida va 1 ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot ob’ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga qo‘llagan muassasalar, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Trikotaj to‘qimalarini ikki ignadonli mashinalarda ishlab chiqarishning hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobi adabiyot manbaalarining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, xususan trikotaj texnologiyasi, to‘qimalarning texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashga bag‘ishlangan ko‘plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Bu yo‘nalishda ko‘pgina masalalar ijobiy xal etilgani ko‘rsatilgan, trikotaj ishlab chiqarishning turli usullari, qo‘shimcha moslamalar va mexanizmlar, to‘qish jarayoni ketma-ketligi, trikotaj mahsulotlarning sifatini oshirish yo‘llari tavsiya qilingan.

Tahlil qilingan ilmiy-tadqiqot ishlarida aylana ignadonli mashinalarda ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmagan.

Taqdim etilgan dissertatsiya ishi aylana ignadonli to‘quv mashinalarida yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya ishining “**Aylana ignadonli mashinalarda yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi**” deb nomlangan ikkinchi bobi aylana ignadonli mashinalarda yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini to‘qishga tayyorlash va taxtlash usulini hamda ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini olish texnologiyasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan.


Hozirgi kunda zamonaviy aylana ignadonli mashinalarning asosiy ishchi qismi bo‘lgan, to‘qish qismi igna ko‘tarish klin tizimlari ko‘p pozitsiyali ishlab chiqarilmoqda. Bu esa trikotaj to‘qimasini mashinaga taxtlashda mukammal, aniq, kam vaqt sarflaydigan rejali dasturlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ilmiy tadqiqot ishining vazifasi aylana ignadonli mashinalarda yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini to‘qishga tayyorlash va taxtlash ketma-ketligi usulini ishlab chiqishdan iborat.

Loyihalangan trikotaj to‘qimasini aylana ignadonli mashinalarda ishlab chiqarishdan avval uni taxtlash usuli tuziladi (1-rasm). Trikotaj to‘qimasining taxtlash usuli trikotajni ishlab chiqarish texnologik shart-sharoitlarini chizma tasviri bo‘lib, undagi elementlar ma’lum tartibda joylashgan. Trikotajning taxtlash usuli quyidagi 4 ta elementdan iborat:

1) Trikotaj to‘qimasining grafikli yozuvi. Unda gorizontall chiziqlararo nuqtalar ignadon ignalarini ifodalab, ma’lum tartibda raqamlar bilan belgilangan, ularning joylashishi mashinaning turini belgilaydi. Masalan: bir va ikki ignadonli, glad, lastik yoki interlok.

2) Trikotaj to‘qima tuzilishi rapporti. Bunda mashina igna tovon raqami, trikotaj to‘qima grafikli yozuvining minimal rapporti (qator soni), hamda trikotaj to‘qima tuzilishi elementlari kiritilgan. Trikotaj to‘qima tuzilishi rapporti jadvalida quyidagi shartli belgilardan foydalanish tavsiya etiladi: h-halqa, p-press, - - protyajka.



1-rasm. Lastik trikotaj to‘qimasining taxtlash usuli

3) Mashina klin tizimi. Unda katak ichidagi igna yo‘li (klin) ishchi ignalarni rapport bo‘yicha ko‘tarish tizimlarida: to‘liq ko‘tarish (TK), yarim ko‘tarish (YK)


yoki o'chirib qo'yish (O'Q) tartibini ko'rsatadi. Ko'tarish tizimlarini tartibiga qarab berilgan trikotaj to'qimasining mashinada ishlab chiqarish dasturi tuziladi.

4) Trikotaj to'qimasining halqa tuzilishi. Loyihalangan rapport asosida olingan trikotaj to'qima halqa tuzilishi tasvirlanadi. Trikotaj to'qimasining halqa tuzilishi ipning halqa hosil qilish tartibini ko'rsatadi.

Trikotaj to'qima taxtlash usulida elementlar trikotaj to'qimasining murakkabligiga qarab o'zgaradi. Ko'p hollarda trikotaj to'qimasini taxtlash usulini 1,2,3 elementlarini tuzish bilan kifoyalanish mumkin.

Aylana ignadonli interlok trikotaj to'quv mashinalarining imkoniyatlarini kengaytirish va ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usulini takomillashtirish maqsadida, qo'shimcha ip yordamida halqalari lastik to'qima asosida pressli birlashtirilgan ikki qatlamli trikotaj to'qimasini olish usuli ishlab chiqildi.

Ikki qatlamli trikotaj to'qimasini aylana ignadonli trikotaj mashinalarda to'qishga tayyorlash va taxtlash usuli 2-rasmda tasvirlangan.



2-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi (a), tuzilish rapporti (b), mashina klin tizimi (s), halqa tuzilishi (d)

Trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi asosida ikki qatlamli trikotaj to'qimasining bitta rapportini shakllantirish oltita qatorni ketma-ket to'qib, amalga oshiriladi (1.2, a-rasm).

Navbati bilan, I, IV qatorlarda old (silindr) ignadon ignalar (1,2 tovonchali) 1 halqalar 2,8 ni shakllantiradi. Bu vaqtda orqa (disk) ignadon ignalar (1',2' tovonchali) 3 ishsiz holatda bo'ladi.


II, V qatorlarda orqa ignadon ignalar (1', 2' tovonchali) 3 halqalar 4, 9 ni shakllantiradi. Bu vaqtda old ignadon ignalar (1, 2 tovonchali) 1 ishsiz holatda bo'ladi. Shu bilan, qatorlar I, II, IV, V da mustaqil glad to'qimasi to'qiladi.

Uchinchi III qatorda old ignadon ignalar (1 tovonchali) 5 press yarim halqalar 6 ni, orqa ignadon ignalar (1' tovonchali) 3 press yarim halqalar 7 ni shakllantiradi.

Oltinchi VI qatorda old ignadon ignalar (2 tovonchali) 1 press yarim halqalar 10 ni, orqa ignadon ignalar (2' tovonchali) 11 press yarim halqalar 12 ni shakllantiradi.

Mazkur trikotaj to'qimasini aylana ignadonli mashinalarda ishlab chiqarish hisobiga yengil ustki kiyimlar uchun yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olishga erishildi.

Aylana ignadonli interlok trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, maqsadida yangi tuzilishga ega bo'lgan ikki qatlamli aralash trikotaj to'qimasini olish usuli ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Ikki qatlamli aralash trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi (a), halqa tuzilishi (b)

Trikotaj to'qimasining grafikli yozuvining birinchi I qatori old ignadonning har birinchi ignalari 1 da halqalar 2 ni shakllantiradi, bu vaqtda orqa ignadonning har ikkinchi ignalari 3 press yarim halqalar 4 ni shakllantiradi (3, a-rasm).

Ikkinchi II qatorda old ignadonning har ikkinchi ignalari 5 halqalar 6 ni shakllantiradi.

Uchinchi III qatorda orqa ignadonning har birinchi ignalari 8 halqalar 9 ni shakllantiradi, bu vaqtda old ignadonning har ikkinchi ignalari 5 press yarim halqalar 7 ni shakllantiradi.


To'rtinchi IV qatorda orqa ignadonning har ikkinchi ignalari 10 halqalar 11 ni shakllantiradi.

Olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvidan ko'rish mumkinki, to'qimaning II, IV qatorlari hosilali glad halqalaridan tashkil topgan. Buning uchun halqa qatorini to'qishda, old va orqa ignadon ignalarini tanlab halqa hosil qilish hisobiga erishilgan.

Usulning o'ziga xos xususiyati shuki, trikotaj to'qimasining ikkala tomonida ham mustaqil hosilali glad to'qimasining mavjudligi uni to'qishda turli xomashyo va chiziqli zichlikdagi iplardan foydalanish imkonini beradi, bu esa trikotaj to'qimasining sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

Dissertatsiyaning “**Ip tarangligi o‘zgarishini yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri**” deb nomlangan uchinchi bobida ip tarangligi o‘zgarishini ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganilgan.

Ishlab chiqarish vaqtida ikki qatlamli trikotaj to‘qima tuzilishi, xomashyoning xususiyati, ip uzatilishi, halqa hosil qilish tizimi qiymatlari, to‘qima tarangligi to‘quv jarayonining texnologik ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Aks holda to‘quv jarayoni buziladi yoki sifatsiz ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi ishlab chiqariladi (4-rasm).



a)

b)

4-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining halqa tuzilishi. texnologik ko‘rsatkichlari rostlanmagan (a), ko‘rsatkichlari rostlangan (b)

Trikotaj qatlamlaridagi halqa ipi uzunligining o‘zgarishi, halqalarning bir xil o‘lchamda bo‘lmasligi, to‘qimani bo‘yashdan keyin rang notekisligi nuqsonini keltirib chiqaradi, bu esa trikotaj mahsulotlarining sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

Birinchi taxmin sifatida, biz ipni chiziqli elastik jism deb hisoblaymiz, so‘ngra nisbiy miqdorlarda Guk qonuniga bo‘ysunadigan kuchlanish-deformatsiya munosabatlari chiziqli va bir ma’noli bo‘ladi

$$\sigma = E\varepsilon, \text{ N/mm}^2 \quad (1)$$

yoki mutloq shartlarda ifodalanadi

$$\Delta l = \frac{Pl}{ES}, \text{ mm} \quad (2)$$

bu yerda, l – deformatsiyalanadigan ipning uzunligi, mm

Δl – kuch bilan cho‘zilganda ipning mutloq deformatsiyasi (cho‘zilishi). P , mm.

Ma’lum qattqlik (ES) bilan ipni taranglash natijasida hosil bo‘lgan qayishqoq kuchlarning ishini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin

$$W = \frac{P\Delta l}{2}, \quad (3)$$

bundan

$$\Delta l = \frac{2W}{P}, \quad (4)$$

Agar (3) va (4) ifodalarni tenglashtirsak, o‘zgartirishni amalga oshirsak va halqadagi ipning uzunligi sifatida l ni olsak, u holda quyidagini olamiz

$$l = \frac{2W(ES)}{P^2}, \text{ mm} \quad (5)$$

Olingan (5) ifodaning tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqa teng shartlarda ipning P taranglik kuchi va l halqa ipi uzunligi teskari proporsionaldir, ya'ni taranglik kuchi kamayishi bilan halqadagi ipning uzunligi tabiiy ravishda ortadi. Buni turli xil xomashyo tarkibiga ega bo'lgan trikotaj to'qimalar ishlab chiqarishdagi fizik-mexanik xususiyatlari va texnologik ko'rsatkichlarining eksperimental tadqiqotlari ma'lumotlari tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval

Variantlar	Taranglik kuchi, sN	Halqadagi ipning uzunligi l , mm	Izoh
2 g. II	18,6	2,74	100 % paxta 18,5 teks
I	17,6	3,4	$l_{o'r}=3,34$
II	17,6	3,47	
III	16,7	3,51	$l_{o'r}=3,52$
V	16,7	3,57	
IV	15,7	3,59	100 % paxta 18,5 teks
2 g. III	15,6	4,7	
VI	14,7	5,61	

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, $T=15,7$ sH bo'lganda I variantga mos keladigan namunadagi halqa ipning uzunligi $l=3,4$ mm teng, bu II variantgagi namunadan bir oz kam. Buni xomashyo tarkibining o'ziga xosligi bilan izohlash mumkin, ya'ni I-variant 100 % paxta, 18,5 teks; II-variant esa 21,1 % poliyester 7,7 teksli iplardan iborat bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Shuning hisobiga, qayishqoq deformatsiyalar ulushi oshadi va I variant uchun 68,9 % bo'lgan qiymatdan oshib 78 % ga yetadi.

Halqa ipi uzunligining olingan bog'liqligi (3) ni sifat jihatidan tahlil qilib, biz oldindan shartni qabul qilgan holda, kesish maydonidagi kuchlanish teng bo'lganda miqdoriy holatga o'tamiz, zarbdan ipni yo'naltiruvchigacha zonadagi ipning tarangligi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qiyosiy nisbati l/p^2 va trikotaj namunalari uchun halqadagi ipning uzunligi o'rtasidagi bog'liqlik

№	Namunalar nisbati	Nisbat l/p^2	Halqa ipi uzunligi nisbati l	Farqi, %
1	V/ 2 gr II	1,107	1,161	4,9
2	III/ 2 gr II	1,107	1,281	15,7
3	IV/ 2 gr II	1,250	1,303	4,2
4	II/ 2 gr II	1,250	1,266	1,3
5	VI / 2 gr II	1,57	2,047	30,4
6	IV, II/ V, III	1,129	1,054	7,1

Shunday qilib, iplarning xomashyo tarkibi va chiziqli zichligi (teks) dagi farqga qaramay, halqa ipi uzunligining uning kuchlanishi l/p^2 ga nisbati ko'rinishidagi bog'liqligi odatda tasdiqlanadi va shu bilan ip tarangligining

o'zgarishidan halqa ipi uzunligining o'zgarishini taxminiy baholash uchun asos bo'ladi.

Trikotaj to'qimalari (mato, trikotaj) ko'p hollarda kiyimlarning keng assortimentini ishlab chiqarish uchun foydalanilganligi sababli, yangi kiyimning sifat ko'rsatkichlari orasida foydalanish jarayonida uning barqarorligini ta'minlash ustuvor hisoblanadi. Shuning uchun shakl saqlash xususiyatini tahlil qilish va baholash usullarini ishlab chiqish juda muhim. Buning uchun yangi trikotaj to'qimalarining nafaqat barqarorlik ko'rsatkichlarini, balki ularning tajriba va laboratoriya sharoitidagi o'zgarishlarini ham baholash kerak.

Trikotaj to'qimalari va mahsulotlarining shakl saqlash xususiyatini baholash turli xil ijobiy va salbiy ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi.

Trikotaj to'qimasining elastik va plastik deformatsiyalarning yuqori darajasini hisobga olgan holda, shakl saqlash xususiyatini baholash bir martalik deformatsiyalar komponentlari bilan yakunlanishi mumkin. Shunday qilib, elastik deformatsiyani baholash ijobiy ko'rsatkichni beradi va plastik deformatsiyani baholash - salbiy ko'rsatkich, ya'ni plastik (qaytmas) deformatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, trikotaj to'qimasining shakl saqlash xususiyati shunchalik past bo'ladi. Shuning uchun shakl saqlash xususiyatini baholash uchun plastik deformatsiyaning teskari qiymatini hisobga olish tavsiya etiladi:

$$K_{\phi} = \frac{1}{\varepsilon_n}, \quad (6)$$


bu yerda, $\varepsilon_n = \varepsilon - (\varepsilon_y + \varepsilon_3)$

lekin, $\varepsilon_y + \varepsilon_3 = \varepsilon_0$ (umumiy deformatsiyaning qaytuvchan qismi) va $\varepsilon_n = \varepsilon_H$ (umumiy deformatsiyaning qaytmas qismi), u holda munosabat ham o'rinli bo'ladi

$$K_{\phi} = \frac{1}{\varepsilon - \varepsilon_0}, \quad (7)$$

Formulalar (6) yoki (7) yordamida shakl saqlash xususiyati koeffitsiyentini hisoblash uchun deformatsiya darajasini % ga birlik kasrlariga aylantirish kerak.

Ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalarining eksperimental tadqiqotlari bo'yicha shakl saqlash xususiyati koeffitsiyentini aniqlash, bu koeffitsiyentning xomashyo va trikotaj to'qimalarining tuzilishiga bog'liqligini ko'rsatadi (5-rasm).




5-rasm. Shakl saqlash xususiyati koeffitsiyentining qiymatlari K_{ϕ} turli xil tarkibiy tuzilishli trikotaj to'qima namunalari uchun

Eksperimental natijalardan va shakl saqlash xususiyati ko'effitsiyentini hisoblashdan kelib chiqqan holda, namuna I (paxta 100 % 18,5 teks) eng kichik ko'effitsiyent qiymatiga ega $K_f=3,22$. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining boshqa namunalari (II-VI), shakl saqlash xususiyati ko'effitsiyentiga ega bo'lish sezilarli darajada oshadi, erishish $K_f=7,52$ (namuna V, paxta 37,2 %, 18,5*3 teks; paxta 35,3 %, 18,5 teks; poliyester 27,5 %, 7,7 teks).


Dissertatsiya ishining **“Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini texnologik va fizik-mexanik ko'rsatkichlari tadqiqi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ikki qatlamli trikotaj to'qimasi qatlamlarini biriktiruvchi ip chiziqli zichligi va to'qimadagi nisbatini uning sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini tadqiq etish maqsadida yangi tuzilishdagi trikotaj to'qima namunalari olingan.

Ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalari sifat ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun asos namuna sifatida 18,5 teks chiziqliy zichlikka ega bo'lgan paxta ipidan olingan interlok to'qimasi (I namuna) ishlab chiqarildi (6-rasm).




6-rasm. Interlok trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi va tuzilishi

Birinchi holatda ikki qatlamli trikotaj to'qimasining qatlamlari chiziqli zichligi 18,5 teks bo'lgan yigirilgan paxta ipidan ishlab chiqarilgan (II, III namuna), bunda qatlamlarni biriktirish uchun II namunada chiziqli zichligi 11,1 teks poliyester ipidan, III namunada chiziqli zichligi 7,7 teks poliyester ipidan foydalanilgan (7-rasm).




7-rasm. Halqalari lastik to'qimasi asosida pressli biriktirilgan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi va tuzilishi

Ikkinchi holatda ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining qatlamlari 18,5 teks paxta ipidan (IV, V namuna), biriktirish uchun IV namunada 11,1 teks, V namunada 7,7 teks poliyester ipidan foydalanilgan (8-rasm).



8-rasm. Halqalari interlok to‘qimasi asosida pressli biriktirilgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining grafikli yozuvi va tuzilishi

Uchinchi holatda ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining old tomoni 18,5 teks x 3, orqa tomoni 18,5 teks, biriktirish uchun 18,5 teks paxta ipidan foydalanilgan (VI namuna) (9-rasm).



9-rasm. Old tomoni to‘liq bo‘lmagan glad to‘qimasi asosida to‘qilgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining grafikli yozuvi va tuzilishi


Taklif etilayotgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining qatlamlarini biriktirishda turli tarkibdagi, chiziqiy zichlikdagi iplardan foydalanish mumkin. Trikotaj to‘qimalarini tuzilishini o‘zgartirish uning texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini o‘zgartiradi (3-jadval).

Ishlab chiqarilgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari standart metodika bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi.


**Qo‘shimcha ip yordamida pressli biriktirilgan ikki qatlamli trikotaj
to‘qimasining sifat ko‘rsatkichlari**

Namunalar		I	II	III	IV	V	VI
Ko‘rsatkichlar	Old	paxta	paxta	paxta	paxta	paxta	paxta
	Ort	paxta	paxta	paxta	paxta	paxta	paxta
	Birl.		p/e	p/e	p/e	p/e	paxta
Trikotajning yuza zichligi, M_s , g/m ²		178,3	203,4	221,2	363,5	378,3	325,3
Qalinlik T, mm		0,63	0,75	0,75	0,85	0,85	1,1
Hajm zich. δ , mg/sm ³		283,2	271,2	294,9	427,6	445,1	295,7
Havo o‘tk. B, sm ³ /sm ² *sek.		240,9	184,2	179,3	103,6	101,8	297,6
Ishq. chid. I, ming ayl.		11,8	18,5	25	21,3	24,5	18,6
Uzilish kuchi P, N	bo‘yi	220	312,3	330,8	367,6	391,8	425,3
	eni	152,5	256	292,5	323,2	296,9	328,6
6 N kuchda cho‘zilish L %	eni	21,1	19,3	18,3	17,3	18,1	17,2
Qaytar def. ϵ_0 , %	bo‘yi	68,9	78	78,9	84,6	86,7	87,5
	eni	69,4	73	77,4	71,7	73,2	77,6
Kirishish U, %	bo‘yi	11,8	7	1,5	4	5	4
	eni	13,7	7	2	8,3	9,5	9,8

Taqdim qilingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlarini o‘zaro taqqoslash maqsadida kompleks diagrammasi va sifatini qiyosiy taqqoslash gistogrammasidan foydalanilgan (10, 11-rasm).




**10-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining sifat ko‘rsatkichlarini
kompleks diagrammasi**



11-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalari sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash gistogrammasi



Trikotaj to'qimalarining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha kompleks baholash diagrammasi va gistogramma natijalaridan ma'lum bo'ldiki, bunda qatlamlari glad to'qimasida olingan biriktiruvchi ip sifatida 7,7 teksli poliyester ipi ishlatilgan III namuna eng yaxshi namuna deb topildi. Undan ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

Ikki qatlamli trikotaj tarkibiga press elementlarini kiritish orqali uning shakl saqlash xususiyatini oshirish maqsadida, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari tadqiq qilindi. SAMES rusumli aylana ikki ignadonli interlok trikotaj mashinasida tuzilishi bo'yicha bir-biridan farq qiladigan 2 ta yangi tuzilishli trikotaj to'qima namunasi to'qib olindi. Asos namuna sifatida interlok trikotaj to'qimasi tanlab olindi (I namuna). Ikkinchi II namuna ikki qatlamli trikotaj to'qimasining qatlamlari chiziqli zichligi 18,5 teks yigirilgan paxta ipidan ishlab chiqarilgan, bunda old va orqa qatlamlar asos ipi yordamida pressli biriktirilgan (12-rasm).



12-rasm. Interlok to'qimasi asosida olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining grafikli yozuvi va tuzilishi

Uchinchi III namuna ikki qatlamli aralash trikotaj to‘qimasining qatlamlari chiziqli zichligi 18,5 teks bo‘lgan yigirilgan paxta ipidan ishlab chiqarilgan, bunda old va orqa qatlamlar asos ipi yordamida pressli biriktirilgan (13-rasm).



III-namuna

13-rasm. Interlok to‘qimasi asosida olingan ikki qatlamli aralash trikotaj to‘qimasining grafikli yozuvi va tuzilishi

Interlok to‘qimasi asosida olingan ikki qatlamli aralash trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini kompleks baholash natijalaridan ma‘lum bo‘ldiki, bunda II namuna trikotaj to‘qimasi yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega.

Mazkur dissertatsiya ishida iqtisodiy samaradorlikka yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish hisobiga erishildi.

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash jarayonida “Best Group Textile” MCHJ korxonasida joylashgan 24 klass PAILUNG rusumli aylana ikki ignadonli interlok mashinasi va 1 kg yigirilgan paxta ipining narxi 33000 so‘m, 1 kg poliyester ipining narxi 24000 so‘m qabul qilindi (2024 yil narxlarda).

Hisoblash qiymatlarini inobatga olgan holda yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini II namunasini ishlab chiqarishga tadbiq etish natijasida 1000 m² to‘qimani ishlab chiqarishda xomashyo sarfini kamaytirish hisobiga iqtisodiy samaradorlik:

$$I_s = 9345600 - 8559000 = 786600 \text{ so‘mni tashkil etadi.}$$

1 tonna trikotaj to‘qimasini ishlab chiqarishda esa 2900442 so‘mni tashkil etadi (4-jadval).

4-jadval

Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	I namuna	II namuna
1	1000 m ² to‘qimaning og‘irligi	kg	283,2	271,2
2	1000 m ² to‘qimaning narxi	so‘m	9345600	8559000
3	Iqtisodiy samaradorlik 1 tonnaga I namunaga nisbatan	so‘m	-	2900442

XULOSA

1. Aylana ignadonli to'quv mashinalarida ikki qatlamli trikotaj to'qimasi tomonlarini qo'shimcha va asos ipi yordamida pressli biriktirish usulidan foydalanib yangi tuzilishga ega bo'lgan to'qimalarni yuqori ish unumdorlikda olish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

2. Aylana ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlarini inobatga olgan holda, rejalashtirilgan trikotaj to'qimasini to'qishga tayyorlash va taxtlash ketma-ketligi ishlab chiqildi va asoslandi.

3. Qatlamlari qo'shimcha ip yordamida lastik va interlok to'qimasi asosida pressli biriktirilgan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini aylana ignadonli trikotaj mashinalarda olish usuli ishlab chiqildi.

4. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasini old tomonini to'liq bo'lmagan glad tuzilishida to'qilganda aylana ignadonli ham lastik ham interlok trikotaj mashinalarida ishlab chiqarish mumkinligi asoslab berildi.

5. Aylana ignadonli mashinalarda ikki qatlamli trikotaj to'qimasi halqa ipi uzunligini ip tarangligiga bog'liqlik qonuniyatlari ishlab chiqildi, bunda taranglik kuchi T qiymati kiritilganda trikotaj to'qimasida halqa ipi uzunligini aniqlash formulasi keltirildi va 18,5 teks paxta, 11,1 va 7,7 teks poliyester iplari uchun qiymatlar belgilab qo'yildi. 1 guruh I. $T=15,7$ sN, II. $T=16,7/18,6$ sN, III. $T=17,6/15,7$ sN, IV. $T=16,7/18,6$ sN, V. $T=17,6/15,7$ sN, VI. $T=14,7/16,7/15,7$ sN. 2 guruh I. $T=18,6$ sN, II. $T=18,6/15,6$ sN.

6. Ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalariining eksperimental tadqiqotlari natijalari bo'yicha xomashyo turi va trikotaj tuzilishiga bog'liq bo'lgan shakl saqlash xususiyati koeffitsienti aniqlandi. Hisoblashdan kelib chiqib, I-namuna (100 % paxta 18,5 teks) $K_f = 3,22$ koeffitsiyentining eng past qiymatiga ega. Boshqa barcha trikotaj to'qima namunalari (II-VI) $K_f = 7,52$ ga (V-namuna, paxta 37,2 %, 18,5*3 teks; paxta 35,3 %, 18,5 teks; poliyester 27,5 %, 7,7 teks) teng va oshganini ko'rsatdi.

7. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasi tomonlarini qo'shimcha ip yordamida lastik nisbatida pressli biriktirish orqali II namunada qo'shimcha biriktiruvchi ip miqdori III namunaga nisbatan 11,1 teksli poliyester ipi ishlatilganda 38,2 % ga, 7,7 teksli poliyester ipi ishlatilganda 39,5 % ga, hajm zichligi esa 36,5 % ga kamaydi.

8. Taqdim etilayotgan ikki qatlamli trikotaj to'qimasini aylana ignadonli mashinalarda olishda olinadigan iqtisodiy samaradorlik xomashyo sarfini kamaytirish hisobiga 1 tonna to'qimani ishlab chiqarilganda 2900442 so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ЖУРАКУЛОВ ЭЛЁР НУРМАМАТ УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ
ДВУХСЛОЙНЫХ ТРИКОТАЖНЫХ ПЕРЕПЛЕТЕНИЙ НА
КРУГЛОВЯЗАЛЬНЫХ МАШИНАХ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.2.PhD/T4705

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Юнусов Камолиддин Зунунович
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Хакимов Шеркул Шергозиевич
доктор технических наук, профессор

Абдурахманов Абдурашид
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский институт текстильной промышленности

Защита диссертации состоится 9 апреля 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохджахон-5, административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: pochta@ttyesi.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (регистрационный номер 227). Адрес: 100100, Ташкент, Шохджахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 24 марта 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 227 от 24 марта 2025 года).



Х.Х.Камилова

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хахимов

Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время растёт мировое производство готовой продукции (по ценовой категории) в трикотажной промышленности. Это объясняется тем, что себестоимость конечной продукции значительно превышает себестоимость сырья и полуфабрикатов, поэтому готовая продукция занимает широкое место на международном рынке. Усиление конкуренции трикотажной промышленности на мировых рынках, сокращение затрат за счёт производства смесовых видов полотен требуют дополнительных мер по развитию этой отрасли. Объем текстильного рынка в мире в 2023 году составил 1,840 триллиона долларов.¹ Росту рынка способствуют такие факторы, как разнообразие трикотажных изделий, высокая формоустойчивость, низкая себестоимость и использование биоразлагаемой одежды

В отрасли ведутся исследования, направленные на разработку новых научно-технических решений ресурсосберегающих технологий получения двухслойных структур трикотажных полотен для верхней одежды. Исследования по совершенствованию методов создания новых трикотажных полотен считаются приоритетными. В связи с этим особое внимание уделяется обоснованию технологических процессов, показателей и режимов эксплуатации двухслойных трикотажных полотен, используемых для производства верхней одежды.

В нашей республике, продолжая промышленную политику, направленную на обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, реализуются комплексные меры по увеличению объёмов промышленного производства и продукции текстильной промышленности, и были достигнуты определенные результаты. В Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы поставлены важные цели, среди которых «...увеличение объёма производства продукции текстильной промышленности в два раза». При реализации этих задач важное значение имеет получение трикотажных полотен новых структур, обладающих высокими характеристиками качества, расширение их ассортимента, создание двухслойных трикотажных полотен, отвечающих требованиям мирового рынка, развитие их научной базы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, обозначенных в Постановлениях и Указах Президента Республики Узбекистан от 12 февраля 2019 года ПП-4186 «О мерах по дальнейшему углублению реформирования текстильной и швейно-трикотажной промышленности и расширению ее экспортного потенциала», от 16 сентября 2019 года ПП-4453 «О мерах по дальнейшему развитию лёгкой промышленности и стимулированию производства готовой продукции», от 28 января 2022 года УП-60 «О поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, содействии развитию текстильной и швейной промышленности», от

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 1 мая 2024 года No УП-71 «О мерах по поднятию на новый уровень развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности.»

